



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTEBLARIDA TASVIRIY SAN'AT FANI O'TILISHINING AHAMIYATI VA TASVIRIY SAN'ATNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI

¹Mamitaliev Ahmadjon G'aniyevich

O'zbekiston badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zosi Andijon davlat
pedagogika instituti Tasviriy san'at fani o'qituvchisi,

²Adhamova Oltinoy Rafiqjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti "Tasviriy san'at va muhandislik
grafikasi" yo'nalishi 2-bosqich talabasi,

³Solijonova Muhtasarxon Jahongir qizi

Andijon davlat pedagogika instituti "Tasviriy san'at va muhandislik
grafikasi" yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7711796>

ARTICLE INFO

Received: 28th February 2023

Accepted: 08th March 2023

Online: 09th March 2023

KEY WORDS

Tasviriy san'at, maktab,
o'qituvchi, o'quvchi, rassom,
ijod, fikr, idrok,
ta'lim-tarbiya, yosh avlod,
borliq, tabiat, ko'nikma.

ABSTRACT

*Ushbu maqola umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy
san'at fani o'qitilishining yoshlar tarbiyasidagi
o'rni, fanning maqsad vazifalari, fan rivojlanish jarayonida
hissa qoshgan jahon namoyondalari, hamda tasviriy
san'atning inson kamolotidagi ahamiyati to'g'risida keng
fikrlar yuritadi va metodik tavsiyalar beradi.*

"Yosh avlod bizni kelajagimiz poydevori va ertangi kunimiz asoschisidir!"

Sh.M.Mirziyoyev

Bugungi kunda yoshlarni ma'nan yetuk va barkamol qilib tarbiyalashda va tasavvur dunyosini kengaytirishda "Tasviriy san'at" fanining ahamiyati juda muhim hisoblanadi. Yosh avlodni barkamol, yetuk qilib tarbiyalash insoniyatning oldiga qo'ygan eng muhim maqsadlaridan biri demakdir. Hozirda milliy ma'naviyatimiz hamda qadriyatlarimiz rivojini tasviriy san'at na'munalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Adabiyot san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq bezavol yashaydi!". Darhaqiqat ijodkor insondan hech qachon yomonlik chiqmaydi. Tasviriy san'at bilan shug'ullanish insonlarga estetik zavq bag'ishlaydi va ularning ruhiy dunyosini boyitadi. Tasviriy san'at insonlarga atrofdagi mavjud ranglarni xilma-xilligini ko'ra olish, dunyo go'zalliklarini his qilish uchun yaqindan yordam beradi. Insoniyat yaratilibdiki, uning hayotida tasviriy san'atning ilk belgilari paydo bo'la boshlagan hamda yillar davomida rivojlanib, bugungi kunda necha-necha insonlarning sevimli kasbi va hayot mazmuniga aylanib ulgiran. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab Respublikamizda xalq ta'limini tubdan isloh qilish, uni jahonning rivojlangan mamlakatlari darajasiga olib chiqish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Shu maqsadda 1992-iyulda «Ta'lim to'g'risida»gi qonun e'lon qilindi. Bu hujjatda ko'rsatilgan reja va tadbirlarni amaliyotga joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb qaraldi. Natijada umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi barcha o'quv fanlari qatori «Umumta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'limi konsepsiyasi» ham tayyorlandi va u O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi kollegiyasining 5-may 1993-yilgi 5-5-sonli qarori bilan



tasdiqlandi. Mazkur konsepsiyada qayd qilinganidek, uni tayyorlashda quyidagi omillar hisobga olingan edi: mustaqil O'zbekiston sharoitidagi o'zbek bolasini shakllantirishga bo'lgan zamonaviy talablar, ta'lim-tarbiyani milliy madaniyat va san'at asosida amalga oshirishni kuchaytirish, ta'lim-tarbiyani amalga oshirishda O'zbekiston Sharq mamlakati ekanligini hisobga olish va shu asosda badiiy ta'lim mazmuniga tegishli o'zgartirishlar kiritish, maktabdagi badiiy ta'limni amalga oshirishda bolalarni fikrlashga, ishga ijodiy munosabatda bo'lishlikni kuchaytirish, ularni yuksak did va madaniyatli qilib shakllantirishga qaratish; - maktabda bolalarni tasviriy san'atdan bilim va malakalarni puxta egallashlariga qaratish, shu asosda tabaqalashtirilgan badiiy ta'limni joriy etish, O'zbekiston maktablarida tasviriy san'at ta'limi mazmunini dunyo standartlari darajasiga olib chiqish. Bu g'oyalar so'zsiz barkamol komil insonni shakllantirishga zamin bo'lib, unda tasviriy san'atni o'qitishning yaqin va uzoq yillarda rivojlantirishga mo'ijallangan yo'nalishlari bayon etildi.

San'at atrof muhit, borliq va jamiyatdagi barcha narsalarni badiiy tasvirda ifodalanishidir. Tasviriy san'at hayotni va moddiy olamni shakllanishini aks ettirish, insonlarga uni bildirishda muhim vosita bo'lib hizmat qilmoqda. Yosh avlodni yetuk va barkamol qilib tarbiyalash bilan bir qatorda, yoshlarga sifatli ta'lim-tarbiya berish kelajakda yurtimiz ravnaqi va taraqqiyoti uchun o'z hissasini qo'shuvchi yetuk kadrlar yetishib chiqishida muhim o'rin tutadi. Hozirgi kunda qaysi bir rivojlangan mamlakatni olmaylik, sifatli ta'lim-tarbiya berish maktab yoshidan boshlanadi. Shu bilan bir qatorda yoshlarga maktab yoshidan boshlab san'at va tasviriy san'atni o'rgatish mamlakatimiz oldidagi muhim vazifa hisoblanib kelmoqda. Shunday ekan bolalarni kichikligidanoq o'qishga va uqishga o'rgatib, qalbini mehr va ezguliklar bilan to'ldirib borsak, kelajakda ulardan yurti koriga yaraydigan, o'z vatanini sevib ardoqlaydigan komil insonlar yetishib chiqadi. Ushbu fikrlardan kelib chiqqan holatda yoshlarni tarbiyalash jarayonida ularning qalbida tasviriy san'atga bolgan qiziqishlarini oshirish va san'atga bo'lgan mehr tuygusini yanada shakllantirish oldimizga qo'ygan maqsadga erishishda bevosita hizmat qiladi. Chunki tasviriy san'at inson qalbiga mehr uchqunini sochuvchi, insonni mehnatga, tabiatga bo'lgan qarashlarini shakllantiruvchi kuchdir. Tasviriy san'at yoshlarga estetik zavq bag'ishlaydi hamda ko'rish, idrok etish, kuzatish tasavvur qilish kabi bir qancha ongning yuksak jihatlarini oshirishga hizmat qiladi.

Jahonda tasviriy san'atni o'qitilishiga oid dastlabki ma'lumotlar qadimgi Misr va Yunonistonda eramizdan avvalgi III asrlarga doir materiallar mavjud. Qadimgi Misrda tog' qoyalariga o'yib ishlangan haykallar, shuningdek, rangtasvir asarlari o'zining yuksak badiiyligi ya ishlalish texnikasi jihatidan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Kishilar o'z tajribalarini keyingi avlodlarga turli yo'llar bilan ibtidoiy jamoa davridan boshlab o'tkazib kelganlar. Bunga eng qadimgi Misrda rasm chizishga o'rgatishga doir tarixiy manbalar guvohlik beradi. Tasviriy san'atni o'qitish ishi bilan odamlar qadimdan shug'ullanib kelganliklari ko'proq qadimgi Misr manbalarida saqlanib qolgan. Misr maktablarida rasm ishlashga o'rgatish muntazam ravishda chizmachilik bilan bog'liq holda amalga oshirilgan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda maktabni tugallab chiqayotgan yoshlar ma'lum maydon yuzasini o'lchash va uni qog'ozga tushura oladigan hamda bino planini chiza oladigan bo'lishi talab etilgan.

Tasviriy san'atni barcha umumiy ta'lim maktablarida o'qitishning foydali ekanligi buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiy tomonidan uning «Buyuk didaktika» asarida rivojlantirildi.



Umumiy ta'lim tizimida rasm ishlashni takomillashtirishda fransuz olimi J.J.Russoning fikrlari diqqatga sazovordir. U o'zining «Емил или воспитание» nomli kitobida borliqni bilishda naturaga qarab rasm ishlashning ahamiyati katta ekanligini isbotlab bergan. Uning fikricha rasm chizishni ko'proq tabiat qo'ynida amalga oshirish samaralidir. Chunki, bolalar tabiat qo'ynida narsalarni haqiqiy rangi, perspektiv qisqarishlarini ko'rgazmali ravishda o'z ko'zlari bilan ko'radilar, uning qonunlarini ongli ravishda tushunib yetadilar. Yevropa pedagoglari orasida rasm chizishni umumiy ta'lim maktablarida alohida o'quv predmeti sifatida o'qitilishi va uni takomillashtirishda I.V.Gyote (Germaniya), I.G.Pestalotssi, I.Shmidt va P.Shmidt (Shvetsariya), A.Dyupyui va F.Dyupyular (Fransiya) katta hissa qo'shganlar. Umumiy ta'lim maktablarida rasm ishlashda natural metoddan ko'ra geometrik metodlarni afzalliklarini N.Pestalotssi, P.Shmidt va I.Shmidt kabi pedagoglar yoqlab chiqqanlar. Natijada, maktablarda rasm chizishga o'rgatishda ikkita qarama-qarshi natural va geometrik metodga asoslangan ikki oqim paydo bo'lgan. Naturaga asoslangan rasm chizishni ustunliklarini Ya.A.Komenskiy, J.J.Russo, I.V.Gyotelar yoqlagan bo'lsalar, geometrik metodni ko'proq I.G.Pestalotssi, I.Shmidt va P.Shmidt, F.Dyupyular asoslashga harakat qilganlar.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at mashg'ulotlarining bir qancha turlari va vazifalari mavjud. Bular narsaning o'ziga qarab rasm ishlash, dekorativ rasm ishlash, mavzu asosida kompozitsiyalar ishlash, tabiatga chiqib jonli manzaralar rasmini ishlash kabi turlar demakdir. Shu bilan birgalikda tasviriy san'at darslarini o'tish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarni, fanga yanada qiziqishlari oshirish maqsadida fanni yanada osonroq va kengroq tushuntirish uchun, tasviriy san'at fanining kelib chiqishi, rivojlanishi hamda ushbu sohada faoliyat olib borgan buyuk rassomlar haqida ma'lumotlar berib ularning durdona asarlari bilan tanishtirish ham dars jarayonida juda katta yordam beradi. Tasviriy san'at o'quvchilarning nafaqat estetik tarbiyani shakllantirishda, balki odob-axloq qoidalarini ham shakllanishida yaqindan yordam beradi. Tasviriy san'at inson ongiga juda tez ta'sir etadi. Kishini ruhlantiradi va ma'naviy olamine boyitadi. Shu bilan birgalikda ona vatanga muhabbat tuyg'usini uyg'otadi. O'quvchilarga tasviriy san'at darslarini o'qitish jarayonida, jannatmakon O'zbekistonning milliy tasviriy san'atini nihoyatda go'zal ekanligini, dunyo hamjamiyatidagi beqiyos o'rnini o'quvchi yoshlarga maktab yoshidanoq tushuntirib boorish kerak. Zero ular ham kelajakda yetuk mutahassis kadr bo'lib yetishgach, keying avlodga ham o'zida bor bilim va ko'nikmlarni berishi lozim. Yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga e'tiborli bo'lish juda muhim. Chunki bugungi yoshlar ertangi kunimiz asoschilaridir. Biz bugun ularga qanday ta'lim-tarbiya bersak ertaga ulardan osha bergan tarbiya hosilini olamiz. Albatta yerga ekilgan nihol ham parvarishsiz bo'lmaydi. Yahshi parvarishlangan nihl esa o'sib baquvvat daraxtga aylanadi va o'z hosilini beradi. Insonlar hayotini ham shunga qiyoslaydigan bo'lsak, bugungi yosh avlod tarbiyasiga befarq bo'lmasdan ular bilan jiddiy shug'ullanmogimiz kerak. Bu uchun esa albatta tasviriy san'at bevosita hizmat qiladi. Shunday ekan har bir pedagog dars o'tish uchun puxta tayyorgarlik ko'rib, darsni samarali olib borishi kerak. O'qituvchi o'quvchilar bilan yaqin va yahshi munosabatda bo'lib, barcha o'quvchilar etiborini o'ziga jalb qilishi kerak. Sinf o'quvchilarining barchasi bilan bir xil munosabatda bo'lib, hech qaysi bir o'quvchini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi bo'yicha to'la bilimlarga ega bo'lish, ayniqsa, O'zbekistonda va chet ellarda fanning o'qitish tarixi, o'quv



fanning maqsad va vazifalari, ta'limning mazmuni, shakllar, usullari haqida chuqur bilimlarga ega bo'lish tasviriy san'at o'qituvchisi faoliyatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at fanini o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsad quyidagilar:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida tasviriy san'at metodikasi bo'yicha bilim va malakalami hosil qilish va o'stirish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilariga tasviriy san'atning nazariy va amaliy asoslari (yorug', soya, perspektiva, kompozitsiya) haqidagi bilimlarni puxta egallashga yordam berish;
- rasm ishlash va badiiy ijod bo'yicha ko'nikma va malaka hosil qilish;
- o'zbek va jahon xalqlari tasviriy, amaliy va me'morchilik san'ati bilan yaqindan tanishtirish va chuqur o'rgatish;
- tasviriy san'at o'qitish metodikasining o'ziga xos rivojlanishi tarixi, maqsad va vazifalari, nazariy asoslari haqida ma'lumot berish;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish yollari bilan tanishtirish.

Tasviriy san'atning o'qitilishini yaxshilashda A.Shohamidov, M. Nabiyevlarning 1964-yilda nashr etilgan "I-IV sinflarda rasm darslari" metodik qo'llanmasi, O. Apuxtinning 1965-yilda nashr etilgan "San'at haqida suhbatlar" nomli qo'llanmalari o'qituvchilar tomonidan iliq kutib olindi. 1965-yildan boshlab tasviriy san'at o'qitish metodikasi bo'yicha darslik yaratishga kirishildi. 1969-yilda 1-sinf uchun "Tasviriy san'at" (A.Jiltsova, R.Hasanov); 1974-yilda 2-sinf uchun, 1976-yilda 3-sinf uchun "Tasviriy san'at" (R.Hasanov, A.Jiltsova); 1977-yilda 4-sinf uchun "Tasviriy san'at" (R.Hasanov, B.Oripov va boshqalar) nashr etildi. 1-3-sinflar uchun nashr etilgan darsliklar keyingi yillarda bir necha bor qayta chop etildi.

Tasviriy san'at o'qituvchilarining yetishmasligi natijasida O'zbekiston maorif vazirligi kollegiyasining 1974-yil 26-avgustda «Pedagogika o'quv yurtlarida musiqa va ashula, tasviriy san'at va chizmachilik o'qituvchilarini tayyorlash va bu predmetlarning Respublika umumta'lim maktablari va pedagogika o'quv yurtlarida o'qitilishini yanada yaxshilash haqida»gi qaror qabul qilindi. Tasviriy san'atning o'qitilishini yaxshilash borasida qabul qilingan O'zbekiston maorif vazirligi kollegiyasining O'zbekiston rassomlar uyushmasi boshqarmasi bilan hamkorlikdagi 1979-yil 27-iyunda «Maktabgacha tarbiya muassasalarining tarbiyalanuvchilari, o'qituvchilar va pedagogika o'quv yurtlarining o'quvchi-yoshlari badiiy tarbiyasini yanada yaxshilash choralari haqida» qabul qilgan qarori salmoqli o'ringa ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 16- avgust qaroriga ko'ra 1999-2000 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablarida barcha fanlar qatori tasviriy san'at ta'limi bo'yicha ham davlat standartlari joriy etildi. Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqilishi avvalo O'zbekistonning mustaqilligi, uning jahon hamjamiyatiga faol kirib borayotganligi bilan bog'lanadi. Mazkur standartlar O'zbekiston tarixida birinchi bor yaratilishi bo'lib, u respublikamiz maktablarida ta'limni yuqori ilmiy-metodik asosda tashkil etish hamda uni jahon standartlari darajasiga olib chiqishga sharoit yaratdi. Davlat standartiga ko'ra tasviriy san'at ta'limi mazmuni boshlang'ich sinflarda quyidagi to'rt yo'nalishda bayon etilgan:

1. Borliqni idrok etish.
2. San'atni idrok etish.



3. Naturaga qarab tasvirlash.

4. Kompozitsiya.

San'atkor o'z asarida voqea, hodisa, holatning ma'lum bir zumdagi ko'rinishini ifodalab, u tasvir orqali rivojini, mohiyatini ochib berishga intiladi, kishilarning ma'naviy qiyofasi, psixologik holati va boshqa fikrlarni ilgari suradi va tasavvur qiladi. Rassom biror shaxsni rasmini ishlar ekan, u hech vaqt uni faqat o'ziga o'xshatishga ishtilish bilan chegaralanmaydi. Rassom shu ishlayotgan tasvir orqali avvalo o'zining fikr va tuyg'ularini tomoshabinga yetkazishga harakat qiladi. Ishlamoqchi bo'lgan tasvirida avvalom bor g'oyasiga mos mavzu, syujet tanlaydi, voqea kompozitsiyasini quradi, shu yo'lida izlanadi, dastlab hayotni o'rganib, naturani kuzatib, eskizlar chizadi, etyudlar yaratadi. Rassomlik san'atida predmetlarning shakli, hajmi, rangi, ularning o'zaro muvozanatini to'g'ri ko'rsatishda rasmni aniq va to'g'ri ishlashning juda muhim ahamiyati bor. San'atkor o'z asarida real borliqda uchraydigan, balki inson fantaziyasi mahsuloti bo'lgan voqea va predmetlar ham aks ettirilishi, hayotda mavjud bo'lgan hodisalarning ayrim jihatlari o'zgartirib bo'rttirib ko'rsatishi ham mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, tasviriy san'at asarlari - insondagi ajoyib fazilat - borliqni bilish. uni o'rganish va sirlarini ochishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga ta'sir ko'rsatadi. Tasviriy san'at inson ongiga tezda ta'sir etib, unda ezgu hislar uyg'otadigan, kishini ruhlantirib, ma'naviy olamini boyitadigan san'at turlaridan biridir. Shu bilan birga, tasviriy san'at inson shaxsining shakllanishiga va kamolatiga yordam beradigan tarbiyachi hamdir. Jahonga mashhur geograflar, tarixchi, adabiyotchi, shoir, yozuvchilar, konstruktor va boshqa soha allomalari rasm chizishni juda yaxshi bilganlar. Shunga ko'ra Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Gyote, Gyugo, Anderson, Pushkin, Tagor, Mikluxo-Maklay, Mendeleev, B.Zokirov kabi turli soha ijodkorlari rasm chizish bilan jiddiy shug'ullanib kelganlar. Har bir sohani ijodkori uchun rasm chizishni bilish unga katta ijodiy imkoniyat va ozuqa beradi. Ram chizish nafaqat ko'rish idroki tezligini, balki yaxshi ko'rish xotirasini ham shakllantiradi.

Hozirda umumiy o'rta ta'lim maktablarining vazifalaridan biri o'quvchilarni turli kasb vahunarlariga yo'llash hisoblanadi. Ma'lumki har bir o'quvchida biron bir hunar oki kasbga nisbatan qiziqish bo'ladi, lekin bu qiziqish har bir bolada birdek ochiq namoyon bo'lmaydi. ba'zi bir o'quvchilarda ochiq va ba'zilarida esa yashirin bo'ladi. O'qituvchining vazifasi ana shu har bir o'quvchida mavjud havasni rivojlantirish uchun o'quvchi bilan yaqindan hamsuhbat bo'lib, o'quvchilarning iqtidorlarini kashf etishdir. Tasviriy san'at darsining eng muhim vazifasi esa tasviriy amaliy va memorchilik san'atlari asrlarini o'qishga o'rgatishdir. Tasviriy san'at asrlari ertak, hikoya kabi ma'lum bir mazmunni aks ettiradi. Lekin biz uni kitobdek o'qiy olmaymiz.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki tasviriy san'at asarlarining o'ziga xos tili bor. Tasviriy san'at asrlari mazmunini biz undagi tasvir, talqin, rang va obrazlar orqali o'qiy olishimiz mumkin. Shu sababli ham biz tasviriy san'at darslarini puhta o'zlashtirmog'imiz darkor. Chunki tasviriy san'at o'quv predmeti har bir inson uchun zarur bo'lgan badiiy madaniyatga doir elementar bilim va malakalar beradi. Har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarda dam olishi, ish vaqtida sarflagan quvvatini tiklashi kerak bo'ladi. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san'at asarlari bilan muzey, ko'rgazmalar yoki boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali



erishadi. Shunday ekan har tasviriy san'atni o'rganish har bir inson uchun foydali va uni aynan egallash shart degani emas, ammo san'atni tushunmaslik ma'nan qaloqlik demakdir!

References:

1. N.Saidaxmedov. "Yangi pedagogik texnologiyalar". "Moliya" nashriyoti 2003-yil Toshkent.
2. B.Azimova. "Natyurmort tuzish va tasvirlash". "O'qituvchi" nashriyoti 1984-yil Toshkent.
3. N.Abdullayev. San'at tarixi. 1-tom. "O'qituvchi" nashriyoti 1986-yil Toshkent
4. S.Abdirasilov. Tasviriy san'at o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish. 1996-yil Toshkent.
5. B.N.Oripov. Tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi. "Ilm-ziyo" nashriyoti 2013-yil.
6. S.F.Abdirasilov. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. 2012-yil Toshkent.
7. B.Oripov. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. "Ilm-ziyo nashriyoti" 2005-yil Toshkent.
8. R.Hasanov. Maktabda tasviriy san'at mashg'ulotlarini takomillashtirish yo'llari. "O'qituvchi" nashriyoti 1986-yil Toshkent.
9. R.Xasanov. Maktabda tasviriy san'at o'qitish metodikasi. "Fan" nashriyoti 2004-yil Toshkent.
10. B.N.Oripov. tasviriy san'at kabineti darsdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlar. 1974-yil Toshkent.
11. Hasanov. Narsaning o'ziga qarab rasm chizish. 1986-yil Toshkent.
12. Boymetov. "Qalam tasvir" o'quv qo'llanma. "ILM-ZIYO" nashriyoti. 2017-yil Toshkent.
13. Muratov. "Qalam tasvir" o'quv qo'llanma. "Ijod-print" nashriyoti. 2020-yil Toshkent.
14. U.Mamatov. O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari. "Mumtoz so'z" nashriyoti. 2018-yil Toshkent.